

17. 9 ga bo'linish alomati



Yondosh mavzu:
Hayvonot bog'lari


Sonning raqamlari,
xonalar,
qo'shish va ayirishning
xossalari



1. Ifodalarning qiymatlarni hisoblang. Ifodalarning qiymatlari asosida qonuniyatni aniqlang. Keyingisi qaysi hayvon bo'lishi kerak?



$$(170 + 190) : 8 \cdot 3$$



$$(4\ 540 - 4489) \cdot 7$$


$$13\ 676 : 52 - 17$$



$$(1\ 647 + 225) : 4$$



$$428$$



$$321$$



$$579$$



$$396$$



2. Ushbu qoplardan qaysi birini 9 ta otga teng taqsimlash mumkin?



$$108 \text{ kg}$$



$$45 \text{ kg}$$



$$92 \text{ kg}$$



$$60 \text{ kg}$$



$$36 \text{ kg}$$



$$54 \text{ kg}$$

Har bir qopning massasi uchun raqamlar yig'indisini toping. Nimani farqlash mumkin?



9 ga bo'linish alomati

Agar sonning raqamlari yig'indisi 9 ga bo'linsa,
u holda sonning o'zi ham 9 ga bo'linadi.



3. Qulay usulda hisoblang. Qanday ifodalar 9 ga karrali?

- | | |
|------------------------------|--------------------------------------|
| a) $(76 + 79) - 56$ | b) $(1\ 745 + 3\ 181) - 545$ |
| d) $27\ 564 + 7\ 864 + 536$ | e) $5\ 000 - 1\ 243 - 1\ 757$ |
| f) $4\ 536 : 3 + 4\ 464 : 3$ | g) $2\ 281 \cdot 2 + 2\ 219 \cdot 2$ |



4. 37 890, 193 904, 659 233, 297 355, 6 584 sonlari orasidan:

- a) 3 ga bo'linadigan sonlarni;
- b) 9 ga bo'linadigan sonlarni ko'chirib yozing.

Xulosani tugallang: agar son 9 ga bo'linsa, u holda ...



5. Tuyoqli hayvonlar uchun 340 kg pichan tayyorlandi. 60 kg pichan 4 ta otga teng taqsimlangan, 8 ta echki uchun 20 kg kam pichan tayyorlangan.

- a) Echki va otlarga berilgandan keyin qancha pichan qoladi?
- b) Bitta otga nisbatan bitta echki qancha kam pichan yeydi?



6. Sxema bo'yicha ifoda tuzing. Ularning ildizlarini toping.

$$7\ 195 + 1\ 412$$

$x \cdot 9$ | 219

$$6\ 959 + 4\ 037$$

738 | $y : 8$



7. Ifodalar tuzing va savollarga javob bering.

- a) Har bir kichik baliq uchun 3 litr suv, katta baliq uchun esa 11 litr suv kerak. 14 ta kichik va 5 ta katta baliq suzayotgan akvariumga necha litr suv quyish kerak?
- b) Har bir tomoni 1 m 3 dm bo'lgan kub shaklidagi akvarium bu baliqlarga mos keladimi?

17. 9 ga bo'linish alomati



8. Mirvohidning chap cho'ntagida 92 000 so'm, o'ng cho'ntagida esa 37 000 so'm pul bor. U 3 ming so'mdan 9 stakan hayvonlar yemi sotib oldi. Mirvohidning qancha puli qoldi?



9. Ifodalarni hisoblang va qiymati faqat 9 ga to'liq bo'linadiganlarni tanlang. Javoblarni o'sish tartibida joylashtiring. Shu orqali Toshkent hayvonot bog'ida yashovchi burama shoxli tog' echkisining boshqa nomi nima ekanligini aniqlang.

O	$(5\ 670 - 5\ 490) \cdot 6 : 4$	M	$(78\ 000 - 34\ 800) : 200$
E	$2\ 460\ 320 : 80 - 30\ 038$	R	$1\ 224 + 256 \cdot 8 - 320$
E	$703 \cdot 6 + (987 - 187) : 20$	R	$(520 \cdot 60 \cdot 4 - 78\ 900) : 100$
O'	$(1\ 024 - 847) \cdot 20 - 1\ 542$	X	$(72 - 66) \cdot 100 + 144 : 12$



10. Raqamlar orasiga +, -, · va : belgilarini qo'yib, to'g'ri tengliklar tuzing.

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 1$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 2$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 3$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 4$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 5$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 6$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 7$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 8$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 9$$

$$5 \quad 5 \quad 5 \quad 5 = 10$$



11. Hisoblang. Barcha qiymatlar 9 ga karralimi?

$$(528 + 6\ 996 : 22 - 54) : 6 + 47\ 928$$

$$(720 : 24 \cdot 60 + 33\ 200) : 7 - 3\ 029$$

$$54\ 009 : 9 + (960\ 221 - 957\ 320) \cdot 4$$



12. Tuyoqli hayvonlar uchun 1 kilogrami 32 000 so'mdan 2 t 370 kg pichan, 18 000 so'mdan 4 t 50 gramm yangi o't sotib olindi. Yirtqichlar uchun ozuqa 6 800 000 so'mga tushdi. Qaysi hayvonlar yemishiga ko'p pul sarflandi? Qancha ko'p?